

Fun Home Learning (Uyda qiziqarli narsalarni o'rganish)

UZBEK

Kichikroq: 4-11 yoshlar

Kattaroq: 12-20 yoshlar



Matematika



O'qish







Tabiatshunoslik



Jamiyatshunoslik

O'zingiz yoqtiradigan faoliyat turlarini tanlang. Uyingiz farzandingizning ilk sinf xonasidir!

FAOLIYAT	FAN	MATERIALLAR
<p>Ovqatlanishni rejalashtirish va uyda birga ovqat pishirish, o'lchov va miqdorlardan foydalanish</p> <p>Kichikroq: Yorma, sendvichlar, salatlar (oson tayyorlanadigan ovqatlar). Ovqatni tortish, o'lchash, aralashtirish va pishirishda yordam bering.</p> <p>Kattaroq: Guruch, makaron, pishirilgan sabzavotlar, go'sht turlari (murakkabroq ovqatlar); ovqatni rejalashtirish, unga mablag' ajratish va ovqat pishirishda yordam bering.</p>	<p>+ -</p> <p>÷ ×</p>	<p>Oshxona buyumlari</p> <p>O'lchov qoshiqlari va krujkalari</p>
<p>Oldingi zamonlar voqealari va bolalik xotiralarini so'zlab berish</p> <p>Kichikroq: Oddiy hikoyalar so'zlab berish</p> <p>Kattaroq: Oila boshidan kechirgan qiyinchiliklar va erishgan muvaffaqiyatlar haqidagi boshqa hikoyalarni ham so'zlab bering.</p>		<p>Gaplashish</p>
<p>Birgalikda bog' parvarishlash yoki krujka yoki kichik tuvakka 3-4 ta urug' qadash</p> <p>Kichikroq: Jurnal tuting va har 3-4 kunda ro'y berayotgan o'zgarishlar rasmini chizib boring.</p> <p>Kattaroq: O'sha urug'dan yana 2-3 ta qadang va biror sharoitni (suv yoki quyosh nuri miqdori) o'zgartiring, qaysu urug' eng tez unib chiqishini taxmin qiling. Har 3-4 kunda ro'y berayotgan o'zgarishlarni qayd etib borish uchun jurnal tuting.</p>		<p>Urug'lar</p> <p>Tuproq</p> <p>Bloknot</p> <p>Qalam/Rangli bo'r</p>
<p>Mahallaga yordam beradigan kishilar (o't o'chiruvchi, politsiya, fermer) va ular nima ish qilishi haqida gapirib bering</p> <p>Kichikroq: Mahallaning biror a'zosiga bergan yordami uchun tashakkur xati yozing yoki biror ovoqli xabarni yozib oling.</p> <p>Kattaroq: Mahallaga ko'p yordami tegadigan kishiga xat yozing yoki ovoqli xabarni yozib oling va bunday kishilardan, "Ishingizning eng og'ir tarafi nima?" deb so'rab, ishi haqida savollar bering.</p>		<p>Qog'oz va qalam</p>
<p>"Restoran" o'yini o'ynash</p> <p>Kichikroq: Ovqat pishirishga mo'ljallagan mahsulotlaringiz menyusini tuzing va farzandingiz "restoran"da qancha pul sarflashi mumkinligini hisoblab chiqsin.</p> <p>Kattaroq: Farzandingiz restoranda bosh oshpaz yoki ofitsiant bo'lsin. Har bir kishidan buyurtma oling, ovqat tayyorlashda yordam bering va har bir kishi uchun retsept tayyorlang.</p>	<p>+ -</p> <p>÷ ×</p>	<p>Qog'oz va qalam</p> <p>Yoki</p> <p>Kalkulyator</p>
<p>Birga film tomosha qilish va muhokama etish</p> <p>Kichikroq: Ular nimani yoqtirgani yoki yoqfirmaganini muhokama qiling. Xotimani boshqacha qiling.</p> <p>Kattaroq: Qog'ozga filmdagi joy va qahramonlar tavsifini, filmda qanday voqealar ro'y berganini yozing. Yangi xotima yasang. O'zingizni film qahramonlaridan biri sifatida tuting.</p>		<p>Filmlar</p> <p>Birga gaplashish</p> <p>Qalam va qog'oz</p>
<p>Tovushlarni o'rganish</p> <p>Kichikroq: Turli stakanlarga turli miqdorda suv soling. Stakanga qancha suv solinganiga qarab, tovush qanday o'zgarishini tinglash uchun har bir stakanni barmog'ingiz bilan ehtiyot bo'lib cherting.</p> <p>Kattaroq: Turli stakanlarni turlicha miqdordagi suv bilan to'ldiring, ularni ehtiyot qilib cherting va suvi ko'pidan ozi tomon bir qatorga terib chiqing. "Happy Birthday" ("Tug'ilgan kun muborak") singari biror oddiy qo'shiqni qanday ijro etishni bilish-bilmasligingizni aniqlab oling.</p>		<p>Suyuqlik ichiladigan stakanlar yoki shisha idishlar</p>

FAOLIYAT	FAN	MATERIALLAR
<p>"Bekitish va topish" o'yini. Bir kishi kichik o'yinchoq singari narsani tanlaydi va yashiradi, bu paytda boshqalar teskari qarab turadi.</p> <p>Kichikroq: Rasmlardan foydalanib, hammani yashirilgan narsa tomon boshlab boradigan xarita chizing.</p> <p>Kattaroq: Oilangiz uchun yashirilgan narsaga olib boradigan yo'nalishlarni yozing.</p>		<p>Kichik o'yinchoq singari narsa</p> <p>Qog'oz va qalam</p>
<p>Tabiat sayri, ziyofat yoki mehnat ta'filini rejalashtiring. Har bir narsaning xarajati qancha bo'lishini hisoblab chiqing. Har bir narsani ro'yxatga kiriting. Hisob-kitob qilish uchun oziq-ovqat va boshqa xarid qilingan narsalar kvitansiyalarini saqlab qo'ying va so'zli topishmoqlar o'ylab toping.</p> <p>Kichikroq: Har bir narsaning narxi qancha ekanini hisoblab chiqing va qo'shing. Uning rasmini chizing yoki jurnal ba yoki gazeta rasmlaridan foydalaning.</p> <p>Kattaroq: Bajarmoqchi bo'lgan ishlaringiz rejasini tuzing. Oila ham bunga qo'shilishi uchun ularga rejangiz tafsilotlarini gapirib bering. Tadbirlar jadvalini tuzing.</p>	<p>+ -</p> <p>÷ ×</p>	<p>Qog'oz va qalam</p> <p>Joylarning jurnal yoki gazetalardan olingan rasmlari</p>
<p>Tashqaridagi narsalarni topish ovi. Tashqaridan topish lozim bo'lgan sariq gul, yaproq va o't o'chirish krani singari qidirilishi kerak bo'lgan narsalar ro'yxatini tuzing.</p> <p>Kichikroq: Bolalar topishi kerak bo'lgan narsalar ro'yxatini tuzing.</p> <p>Kattaroq: Kattalar va kichik o'g'il-qizlar topishi kerak bo'lgan narsalar ro'yxatini tuzing.</p>		<p>Qog'oz va qalam</p>
<p>O'lchab ko'rish mashqlari</p> <p>Kichikroq: Bir osh qoshiq yoki choy qoshiqdan foydalanib, 1 ta o'lchash krujkasiga yoki ½ krujkaga yoki boshqa idishlarga qancha narsa sig'ishini bilib oling...</p> <p>Kattaroq: Xonada mebel, ilgak yoki gilamlar uchun joy o'lchashda o'lchash tasmasi yoki boshqa vositalardan foydalaning; bog' barpo qilish uchun tomorqa yerini o'lchang.</p>		<p>O'lchash qoshiqlari</p> <p>O'lchash krujalari</p>
<p>O'z mamlakatingizni yaratish</p> <p>Kichikroq: U qanday bo'lishini istaysiz? Uning ob-havosi qanday bo'lishini istaysiz? Unga kim rahbarlik qiladi? Uning qoidalarini qanday bo'ladi? Tasavvuringizdagi mamlakatingiz rasmini chizing</p> <p>Kattaroq: Hukumat qanday faoliyat yuritadi? Maktablari qanday bo'ladi? O'zingiz yasagan mamlakatning "konstitutsiyasi"ni yozing.</p>		<p>Qog'oz va qalam</p>
<p>Topishmashoq o'yinini o'ynash</p> <p>Kichikroq: Ko'zacha yoki krujkani paxtali koptokcha, munchoq yoki tugmalar bilan to'ldiring. Oiladagi har bir kishi ko'zachada nechta narsa bor deb aytganini yozib oling. Kim eng yaqin sonni aytganini tekshiring!</p> <p>Kattaroq: Bir daqiqada necha marta tez aytishingiz yoki nechta so'z o'qiy olishingizni hisoblang.</p>	<p>+ -</p> <p>÷ ×</p>	<p>Ko'zacha yoki krujka</p> <p>Paxtali koptokcha, munchoq, tugma yoki loviya donalari</p>
<p>"Men kimman?" o'yinini o'ynash O'yin</p> <p>Barcha yoshdagilar: Yopishqoq qog'oz parchasi, karta yoki qog'oz bo'lagiga 10 ta hayvonni chizing yoki nomini yozing. Kartalarni chiyilang, har bir kishi unga nima chizilgani yoki yozilganini ko'rmay tanlasin va keyin o'sha qog'ozni ularning peshonasiga yopishtirib chiqing. Navbati bilan bir-biringizdan peshonadagi sirlil hayvonlar haqida "ha" yoki "yo'q" deb javob beriladigan va "Men qushmanmi?" qabilida hayvonlar nomi aniqlanguncha, "Men uchishim mumkinmi?" yoki "Mening 4 ta oyog'im bormi?" degan savollar so'rang.</p> <p>Kattaroq: 20 ta hayvon ro'yxatini tuzing.</p>		<p>Yopishqoq qog'oz parchalari yoki qog'oz bo'laklari</p> <p>Yopishqoq lenta qalam</p>
<p>Qurish, kashf qilish, yaratish</p> <p>Barcha yoshdagilar: Biror narsa qurish, kashf qilish yoki foydali qurilma yaratish uchun uy atrofidagi qayta ishlatilgan karton, plastik va qog'ozdan foydalaning.</p> <p>Kattaroq: Buzuq kalkulyator, radio yoki motorni qismlarga ajratib, qismlarini ko'rsating. Ular nima ekani va nima uchun ishlatilishini bilib oling.</p>		<p>Metall parchalari</p>
<p>Oilangiz madaniyati haqida gaplashing yoki oila muzeyi tashkil qiling</p> <p>Barcha yoshdagilar: Oilangizda qanday an'analar bor? Madaniyatingizga taalluqli musiqa, til, oziq-ovqat, kiyim-kechak va bayramlar haqida gaplashing. Ko'proq narsalarni aniqlash uchun oila a'zolaringiz bilan suhbatlashing. Ko'proq narsalarni bilib olish uchun oila a'zolaringiz bilan suhbatlashing. Afisha yasang, rasm chizing yoki oilangiz madaniyatidan so'zlovchi hikoya yozing.</p>		<p>Nimaiki topsangiz, o'sha narsa haqida gaplashing va rasmini chizing.</p>